

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI OT SO'Z TURKUMI BILAN
TANISHTIRISH VA 4-SINFDA OTLARNING EGALIK QO'SHIMCHALARI BILAN
QO'LLANISHINI O'RGATISH**

Normamatova Dilshoda Shamil qizi

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti 70110501-Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang'ich ta'lim) magistratura mutaxassisligi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini ot so'z turkumi haqida tushuncha hosil qilish,otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanilishi,ularda yuz beradigan ayrim tovush o'zgarishlar,egalik qo'shimchalalarining birlik va ko'plik shakllari 4-sinf darsligi asosida ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *ot,egalik qo'shimchalari,tovush o'zgarishi,birlik,ko'plik*

So'z turkumlarini o'rganishdagi asosiy vazifa o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish,lug'atini yangi ot,sifat,son,fe'llar bilan boyitish, o'quvchilar shu vaqtgacha foydalanib kelayotgan so'zlarning ma'nosini aniq tushunishiga erishish, bog'lanishli nutqda u yoki bu so'zdan o'rinli foydalanish malakasini o'stirish hisoblanadi.Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun so'z turkumlarini o'rganish jarayonida sinonim, antonimlar (atamalar berilmaydi) ustida muntazam ish olib boriladi,o'quvchilar ko'p ma'noli so'zlar,ularning o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan tanishtiriladi.Bunda ta'limni o'quvchilarning shaxsiy tajribalari, bevosita ko'rganlari,radiodan eshitganlari,kitobdan bilib olganlari bilan bog'lash muhim ahamiyatga ega. „Ot“ mavzusini o'rganish tizimi maqsadga yo'naltirilgan jarayon hisoblanadi,uning umumiy ma'nosi va grammatik belgilari bir-biri bilan bog'liq holda o'rganiladi va o'quvchilar nutqida otdan to'g'ri foydalanishlari,to'g'ri yozish malakalari shakllanishi uchun mashqlar murakkablasha boradi.¹

Boshlang'ich sinflarda otni o'rganish vazifalari quyidagilar:

- 1) „ot“ haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish;
- 2) *kim?* so'rog'iga javob bo'lgan (shaxs bildirgan) otlardan *nima?* so'rog'iga javob bo'lgan (narsa, hayvon, jonivor va boshqalarni bildirgan) otlarni farqlash ko'nikmasini hosil qilish;
- 3) kishilarning familiyasi, ismi, otasining ismi, hayvonlarga qo'yilgan nomlar va geografik nomlarni bosh harf bilan yozish ko'nikmasini shakllantirish;
- 4) otlarda son (otning birlik va ko'plikda qo'llanishi) bilan tanishtirish;
- 5) otlarni egalik qo'shimchalari bilan to'g'ri qo'llash ko'nikmasini shakllantirish;
- 6) otlarning kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqida malaka hosil qilish;

¹ K.Qosimova va boshqalar Ona tili o'qitish metodikasi (Boshlang'ich ta'lim talabalari uchun darslik) – T.: „Nosir“ 2009. 248-bet

7) o'quvchilar lug'atini yangi otlar bilan boyitish va ulardan nutqda aniq, o'rinli foydalanish malakasini o'stirish;

8) so'zlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirishni bilish.

„Ot“ mavzusini o'rganishning muayyan bosqichida bajarish lozim bo'lgan bir vazifani hal qilishga ko'proq ahamiyat beriladi. Masalan, 1-2-sinflarda so'z turkumi sifatida otning belgilari (nimani bildirishi, so'roqlari) o'rganiladi, 3-sinfda esa otga atama beriladi, birlik va ko'plikda qo'llanishini o'zlashtirishga ahamiyat beriladi. 4-sinfda otning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi, kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo'shimchalarining yozilishini o'rganishga e'tibor qaratiladi. O'quvchilarning nutqi va tafakkurini o'stirish vazifasi esa mavzuni o'rganishning barcha bosqichlarida hal qilinadi. Grammatik materialni o'rganish va orfografik malaka hosil qilishning butun jarayoni o'quvchilar lug'atini boyitishga, bog'lanishli

nutq malakalari va fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga qaratiladi.²

Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishini o'rgatish boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun murrakkab hisoblanadi, chunki bu mavzu o'rganilgunga qadar, o'quvchilar „shaxs“ tushunchasi bilan hali tanishtirilmagan, kishilik olmoshlarini hali o'rganmagan bo'ladilar.³

4-sinf darsligidagi „Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanilishi“ mavzusi orqali o'quvchilar -m,-im,-ng,-ing,-si,-i,-miz,-imiz,-ngiz,-ingiz,-i kabi qo'shimchalar egalik qo'shimchalari ekanligini bilib oladilar. Egalik qo'shimchalari shaxs va narsa-buyumlarning qaysi shaxsga qarashli ekanligi va tilda 3 ta shaxs

(I shaxs-so'zlovchi, II shaxs-tinglovchi, III shaxs-o'zga) mavjudligi tushuntiriladi.

O'quvchilar quyidagi bilimlarga ham ega bo'ladilar:

-m,-im,-miz,-imiz – I shaxs;

-ng,-ing,-ngiz,-ingiz – II shaxs;

-i,-si – III shaxs egalik qo'shimchalari.

134-mashq.

Qizil **ko'ylagi** xol-xol,

Suygani gul va nihol.

Gul bargida jon saqlar,

Issiq kunlarni yoqlar.

Qo'ng'izlarning **yulduzi**,

Topdim, budir ...

Bir dumaloq, **toshi** bor,

To'rtta oyoq, **boshi** bor.

Sekin-sekin yuradi,

² .K.Qosimova va boshqalar Ona tili o'qitish metodikasi (Boshlang'ich ta'lim talabalari uchun darslik) – T.: „Nosir“ 2009.248-249-betlar.

³ K.Qosimova va boshqalar Ona tili o'qitish metodikasi (Boshlang'ich ta'lim talabalari uchun darslik) – T.: „Nosir“ 2009.250-251-betlar.

Goh tosh qotib turadi.⁴

Mana shunday topishmoqlar o'quvchilarni fikrlashga undaydi, ajratib ko'rsatilgan so'zlar esa ularning diqqatini tortadi va bu so'zlarda qandaydir yashirin ma'no borligiga qiziqish uyg'otadi. Bu so'zlar, albatta, egalik qo'shimchalari bilan yozilgan va buni o'quvchilar topishlari kerak bo'ladi. Asos va qo'shimchalarga ajratish orqali so'zda qaysi egalik qo'shimchasi borligi aniqlanadi.

Egalik qo'shimchalari birlik va ko'plik ma'noda qo'llaniladi.

Birlik ma'nodagi egalik qo'shimchalar: -m, -im, -ng, -ing, -i, -si;

Ko'plik ma'nodagi egalik qo'shimchalar: -miz, -imiz, -ngiz, -ingiz, -lari.

Birlik	Ko'plik
yurtim	yurtimiz
yurting	yurtingiz
yurti	yurtlari

Yuqoridagi ko'rsatilgan namuna orqali o'quvchilar birlikdagi va ko'plikdagi otlarni farqlab olishadi va mustaqil quyidagi so'zlarni ajratishni o'rganadi: Velosiped, telefon, oyna.

142-mashq. Nuqtalar o'rniga II shaxs birlikdagi egalik qo'shimchalarini qo'yib o'qing va yozing.

Turar boylikka kon tog'... ,

Quyosh erur chin o'rtoq... .

O'ynab oqar sho'x buloq...

Mening yurtim, O'zbekiston.

Z. Ahmedova⁵

Bu so'zlarga -ing egalik qo'shimchasi qo'shiladi va so'z asosida tovush o'zgarishi hodisasi kuzatiladi. Bu ma'lumot ham o'quvchilarga yangilik hisoblanadi.

Egalik qo'shimchalari otlarga quyidagicha qo'shiladi: unli tovushdan so'ng: -m, -ng, -si, -miz, -ngiz, -lari; undosh tovushdan so'ng : -im, -ing, -i, -imiz, -ingiz, -lari shaklida. Terak, qishloq kabi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, asos qismining oxirgi k, q undoshlari g va g' talaffuz qilinadi va shunday yoziladi:

terak-teragi, qishloq-qishlog'i. O'quvchilar o'zlari ham xuddi shu kabi so'zlardan topib tovushlarda yuz beradigan bunday o'zgarishlar haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi.

O'rin, shahar kabi ikkinchi bo'g'inida i, a, u unilari ishtirok etgan so'zlarga egalik qo'shimchalaridan birortasini qo'yib ko'raylik. O'rin+i=o'rini bu ko'rinish imloviy jihatdan xato hisoblanib, talaffuzda ham bunday aytilmaydi. Ikkinchi bo'g'indagi unilalarimiz tushib qoladi: o'rni, shahri.

⁴ M.E. Toirova Ona tili darslik 4-sinf I qism „Novda edutainment“ – T.:2023. 74-bet.

⁵ M.E. Toirova Ona tili darslik 4-sinf I qism „Novda edutainment“ – T.:2023. 81-bet.

O'quvchilarga yana bir egalik qo'shimchalarini qo'shilishi bilan bog'liq bo'lgan tovush o'zgarishi haqida ma'lumot berish uchun oxirgi harfi k va q harflari bilan tugagan so'zlardan misollar topish aytiladi.

nok+i=noki, huquq+i=huquqi bu holatda hech qanday o'zgarish sezilmadi. Ammo ayrim so'zlarda so'z oxiridagi k harfi g ga, q harfi esa g' ga o'zgaradi: bilak+i=bilagi, bayroq+i=bayrog'i.

O'quvchilar yana shunday so'zlardan misollar keltiradi: kurak, chelak, quloq.

O'quvchilar ot so'z turkumini, uning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishini o'rganish orqali bir qancha bilimlarga ega bo'lishadi va bu tushunchalar keyingi mavzularni o'zlashtirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.K.Qosimova va boshqalar Ona tili o'qitish metodikasi (Boshlang'ich ta'lim talabalari uchun darslik) – T.: „Nosir“ 2009.

2.M.E.Toirova Ona tili darslik 4-sinf I qism „Novda edutainment“ – T.:2023